



YURISPRUDENSIYA

HUQUQIY ILMIY-AMALIY JURNALI

2024-yil 3-soni

VOLUME 4 / ISSUE 3 / 2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3.



ISSN: 2181-1938

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence

**MUASSIS: TOSHKENT DAVLAT
YURIDIK UNIVERSITETI**

"Yurisprudensiya"

"Юриспруденция" – "Jurisprudence" huquqiy ilmiy-amaliy jurnali O'zbekiston matbuot va axborot agentligi tomonidan 2020-yil 22-dekabrda 1140-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Olyi ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Olyi attestatsiya komissiyasi jurnallari ro'yxatiga kiritilgan.

Mualliflik huquqlari Toshkent davlat yuridik universitetiga tegishli. Barcha huquqlar himoyalangan. Jurnal materiallaridan foydalanish, tarqatish va ko'paytirish muassis ruxsati bilan amalga oshiriladi.

Sotuvda kelishilgan narxda.

Muharrirlar:

Sh. Jahonov, Y. Yarmolik, E. Mustafayev, K. Abdulyanova, Y. Mahmudov, M. Sharifova

Musahhih:

S. Rasulova

Texnik muharrir:

U. Sapayev

Dizayner:

D. Rajapov

Tahririyat manzili:

100047. Toshkent shahri,
Sayilgoh ko'chasi, 35.
Tel.: (0371) 233-66-36 (1169)

Veb-sayt: jurisprudence.tsul.uz

E-mail: lawjournal@tsul.uz

Obuna indeksi: 1387

Jurnal 24.06.2024-yilda bosmaxonaga topshirildi. Qog'oz bichimi: A4.
Shartli 10,2 b.t. Adadi: 100.
Buyurtma raqami: 86.

TDYU bosmaxonasida chop etildi.

© Toshkent davlat yuridik universiteti

BOSH MUHARRIR

B. Xodjayev – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, yuridik fanlar doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI

J. Allayorov – Toshkent davlat yuridik universiteti Ilmiy boshqarmasi boshlig'i, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori, dotsent

MAS'UL MUHARRIR

N. Ramazonov – Toshkent davlat yuridik universiteti O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI

J. Blum – Boston kolleji Huquq maktabi professori, huquq doktori (Boston, AQSH)

M. Vishovatiy – Gdansk universiteti professori (Gdansk, Polsha)

A. Hoshimxonov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Axmedshayeva – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

X. Xayitov – O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

I. To'raboyev – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

S. Xolboyev – O'zbekiston Respublikasi Sudyalar oliy kengashi huzuridagi Sudyalar oliy maktabi dotsenti, yuridik fanlar nomzodi, (Toshkent, O'zbekiston)

N. Raxmonkulova – Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti dotsenti, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

Z. Esanova – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

J. Ne'matov – Toshkent davlat yuridik universiteti professori, yuridik fanlar doktori (Toshkent, O'zbekiston)

M. Kurbanov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti, yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (Toshkent, O'zbekiston)

R. Kuchkarov – Toshkent davlat yuridik universiteti dotsenti v.b., filologiya fanlari nomzodi (Toshkent, O'zbekiston)

**УЧРЕДИТЕЛЬ: ТАШКЕНТСКИЙ
ГОСУДАРСТВЕННЫЙ
ЮРИДИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ**

Правовой научно-практический журнал «Юриспруденция» – *Yurisprudensiya* – *Jurisprudence* зарегистрирован Агентством печати и информации Узбекистана 22 декабря 2020 года с удостоверением № 1140.

Журнал включён в перечень журналов Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Авторские права принадлежат Ташкентскому государственному юридическому университету. Все права защищены. Использование, распространение и воспроизведение материалов журнала осуществляется с разрешения учредителя.

Реализуется по договорной цене.

Редакторы:

Ш. Жахонов, Е. Ярмолик,
Э. Мустафаев, К. Абдувалиева,
Й. Махмудов, М. Шарифова

Корректор:

С. Расулова

Технический редактор:

У. Сапаев

Дизайнер:

Д. Ражапов

Адрес редакции:

100047. Город Ташкент,
улица Сайлгох, 35.
Тел.: (0371) 233-66-36 (1169)

Веб-сайт: jurisprudence.tsul.uz
E-mail: lawjournal@tsul.uz
Подписной индекс: 1387

Журнал передан в типографию 24.06.2024.
Формат бумаги: А4.
Усл. п. л. 10,2. Тираж: 100 экз.
Номер заказа: 86.

Отпечатано в типографии ТГЮУ.

© Ташкентский государственный
юридический университет

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР

Б. Ходжаев – доктор юридических наук, профессор, проректор по научной работе и инновациям Ташкентского государственного юридического университета

ЗАМЕСТИТЕЛЬ ГЛАВНОГО РЕДАКТОРА

Ж. Аллаёров – доктор философии по юридическим наукам, доцент, начальник управления по науке Ташкентского государственного юридического университета

ОТВЕТСТВЕННЫЙ РЕДАКТОР

Н. Рамазонов – доктор философии по филологическим наукам, доцент, заведующий кафедрой узбекского языка и литературы Ташкентского государственного юридического университета

ЧЛЕНЫ РЕДКОЛЛЕГИИ

Дж. Блум – доктор права, профессор Школы права колледжа Бостона (Бостон, США)

М. Вишоватый – профессор Гданьского университета (Гданьск, Польша)

А. Хошимхонов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Ахмедшаева – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Х. Хаитов – доктор юридических наук, профессор Академии государственного управления при Президенте Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

И. Турабоев – доктор философии по юридическим наукам, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

С. Холбоев – кандидат юридических наук, доцент Высшей школы судей при Верховном судейском совете Республики Узбекистан (Ташкент, Узбекистан)

Н. Рахмонкулова – доктор юридических наук, доцент Университета мировой экономики и дипломатии (Ташкент, Узбекистан)

З. Эсанова – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

Ж. Нематов – доктор юридических наук, профессор Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

М. Курбанов – доктор философии по юридическим наукам, доцент (Ташкент, Узбекистан)

Р. Кучкаров – кандидат филологических наук, и. о. доцента Ташкентского государственного юридического университета (Ташкент, Узбекистан)

**FOUNDER: TASHKENT STATE
UNIVERSITY OF LAW**

“Yurisprudensiya” – “Юриспруденция” – “Jurisprudence” legal scientific and practical journal was registered by the Press and Information Agency of Uzbekistan on December 22, 2020 with certificate No. 1140.

The journal is included in the list of journals of the Higher Attestation Commission under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations of the Republic of Uzbekistan.

Copyright belongs to Tashkent State University of Law. All rights reserved. Use, distribution and reproduction of journal materials are carried out with the permission of the founder.

Agreed-upon price.

Editors:

Sh. Jakhonov, Y. Yarmolik, E. Mustafaev,
K. Abdullaeva, Y. Makhmudov,
M. Sharifova

Proofreader:

S. Rasulova

Technical editor:

U. Sapaev

Designer:

D. Rajapov

Editorial office address::

100047. Tashkent city,
Sayilgokh street, 35.
Phone: (0371) 233-66-36 (1169)

Website: review.tsul.uz

E-mail: reviewjournal@tsul.uz

Subscription index: 1385.

The journal is submitted to the Printing house on 24.06.2024.
Paper size: A4.
Cond. p.p. 10,2. Unit: 100.
Order: 86.

Published in Printing house of TSUL.

© Tashkent State University of Law

CHIEF EDITOR

B. Xodjaev – Deputy Rector for Scientific Affairs and Innovations of Tashkent State University of Law, Doctor of Law, Professor

DEPUTY EDITOR

J. Allayorov – Head of the Scientific Department of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences, Associate Professor

EXECUTIVE EDITOR

N. Ramazonov – Head of the Department of Uzbek Language and Literature of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor

MEMBERS OF THE EDITORIAL BOARD

J. Blum – Professor of Law School of Boston College, Doctor of Law (Boston, USA)

M. Vishovatiy – Professor of the University of Gdańsk (Gdansk, Poland)

A. Khoshimxonov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Axmedshaeva – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

X. Xayitov – Professor of the Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

I. Turaboev – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

S. Xolboev – Associate Professor of the Supreme School of Judges under the Supreme Judicial Council of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

N. Raxmonkulova – Associate Professor of the University of World Economy and Diplomacy, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

Z. Esanova – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

J. Ne'matov – Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Law (Tashkent, Uzbekistan)

M. Kurbanov – Associate Professor of Tashkent State University of Law, Doctor of Philosophy in Legal Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

R. Kuchkarov – Acting Associate Professor of Tashkent State University of Law, Candidate of Philological Sciences (Tashkent, Uzbekistan)

MUNDARIJA

12.00.03 – FUQAROLIK HUQUQI. TADBIRKORLIK HUQUQI. OILA HUQUQI.
XALQARO XUSUSIY HUQUQ

- 8 **NARZIYEV OTABEK SADIYEVICH, IGAMBERDIYEVA XURSHIDA XISLATILLAYEVNA**
O'zbekistonda vechur fondlarni tartibga solishda bank faoliyatidagi qoidalarni qo'llash
- 17 **EGAMBERDIYEV EDUARD XAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**
Eksklyuziv blokcheyn va merosxo'rlik huquqi: raqamli merosni boshqarishda zamonaviy yondashuvlar

12.00.04 – FUQAROLIK PROTSESSUAL HUQUQI. IQTISODIY PROTSESSUAL HUQUQI.
HAKAMLIK JARAYONI VA MEDIATSIYA

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**
Notarial jarayon tushunchasi va uning xususiyatlari

12.00.06 – TABIIY RESURSLAR HUQUQI. AGRAR HUQUQ. EKOLOGIK HUQUQ

- 34 **XUDOYQULOVA DILOROM XOLOVNA**
Mamlakatimizda aholining ekologik savodxonligini rivojlantirishda ekologik-huquqiy targ'ibotning o'rni va ahamiyati

12.00.08 – JINOYAT HUQUQI. HUQUQBUZARLIKLARNING OLDINI OLISH. KRIMINOLOGIYA.
JINOYAT-IJROIYA HUQUQI

- 43 **XAYDAROV SHUXRATJON DJUMAYEVICH**
Insomni uning a'zolarini va (yoki) to'qimalarini transplantatsiya uchun olishga rozilik berishga majburlash jinoyati tushunchasi hamda belgilari
- 55 **XUDAYKULOV FERUZBEK XURRAMOVICH**
Jinoyat huquqida ijtimoiy xavfli harakat tushunchasi, mohiyati va uning belgilari

13.00.02 – TA'LIM VA TARBIYA NAZARIYASI VA METODIKASI (SOHALAR BO'YICHA)

- 66 **ZIYAMUXAMEDOVA SHAHNOZA TOLKUNOVNA**
-La +-sh va -lash affiksli so'zshakllar orasidagi omonimiya

YURIDIK FANLARNI O'QITISH

- 77 **ABDURASULOVA QUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOYEVICH**
Kriminologiya fanining vujudga kelishi, dolzarb vazifalari va rivojlanish istiqbollari

СОДЕРЖАНИЕ

12.00.03 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРАВО. ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЕ ПРАВО. СЕМЕЙНОЕ ПРАВО. МЕЖДУНАРОДНОЕ ЧАСТНОЕ ПРАВО

8 НАРЗИЕВ ОТАБЕК САЬДИЕВИЧ, ИГАМБЕРДИЕВА ХУРШИДА ХИСЛАТИЛЛАЕВНА

Регулирование венчурных фондов аналогично банковской деятельности в Узбекистане

17 ЭГАМБЕРДИЕВ ЭДУАРД ХАЖИБАЕВИЧ, ШАЙМАРДАНОВА ДИЛАФРУЗ ДИЛМУРАТОВНА

Эксклюзивный блокчейн и наследственное право: современные подходы к управлению цифровым наследством

12.00.04 – ГРАЖДАНСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ПРОЦЕССУАЛЬНОЕ ПРАВО. ТРЕТЕЙСКИЙ ПРОЦЕСС И МЕДИАЦИЯ

26 КАРИМОВА МАДИНА МИРЗАДЖАНОВНА

Понятие нотариального процесса и его характерные черты

12.00.06 – ПРИРОДОРЕСУРСНОЕ ПРАВО. АГРАРНОЕ ПРАВО. ЭКОЛОГИЧЕСКОЕ ПРАВО

34 ХУДОЙКУЛОВА ДИЛОРОМ ХОЛОВНА

Роль и значение экологической правовой пропаганды в развитии экологической информированности населения в нашей стране

12.00.08 – УГОЛОВНОЕ ПРАВО. КРИМИНОЛОГИЯ. УГОЛОВНО-ИСПОЛНИТЕЛЬНОЕ ПРАВО

43 ХАЙДАРОВ ШУХРАТЖОН ДЖУМАЕВИЧ

Определение и характеристика преступления принуждения человека к согласию на изъятие у него органов и (или) тканей для трансплантации

55 ХУДАЙКУЛОВ ФЕРУЗБЕК ХУРРАМОВИЧ

Понятие, сущность и признаки общественно опасного деяния в уголовном праве

13.00.02 – ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОТРАСЛЯМ)

66 ЗИЯМУХАМЕДОВА ШАХНОЗА ТОЛКУНОВНА

Омонимия между словоформами с аффиксами -la + -sh и -lash

ПРЕПОДАВАНИЕ ЮРИДИЧЕСКИХ НАУК

77 АБДУРАСУЛОВА КУМРИНИСА РАЙМКУЛОВНА, УМИРЗАКОВ БЕГЗОД АТАБОЕВИЧ

Возникновение, актуальные задачи и перспективы развития науки криминологии

CONTENTS

12.00.03 – CIVIL LAW. ENTREPRENEURSHIP LAW. FAMILY LAW. INTERNATIONAL PRIVATE LAW

- 8 **NARZIEV OTABEK SADIEVICH, IGAMBERDIEVA KHURSHIDA KHISLATILLAEVNA**

Applying banking activity rules to the regulation of venture funds in Uzbekistan

- 17 **EGAMBERDIEV EDUARD KHAJIBAYEVICH, SHAIMARDANOVA DILAFRUZ DILMURATOVNA**

Exclusive blockchain and inheritance law: modern approaches to digital inheritance management

12.00.04 – CIVIL PROCEDURAL LAW. ECONOMIC PROCEDURAL LAW. ARBITRATION AND MEDIATION.

- 26 **KARIMOVA MADINA MIRZADJANOVNA**

The concept of notarial process and its characteristic features

12.00.06 – THE LAW OF NATURAL RESOURCES. AGRARIAN LAW. ENVIRONMENTAL LAW

- 34 **KHUDOYKULOVA DILOROM KHOLOVNA**

The role and significance of ecological legal propaganda in developing the ecological literacy of the population in our country

12.00.08 – CRIMINAL LAW, PREVENTION OF OFFENSES. CRIMINOLOGY. CRIMINAL PROCEDURAL LAW

- 43 **SHUKHRATJON JUMAEVICH KHAYDAROV**

Definition and characteristics of the crime of forcing a person to consent to obtaining his organs and (or) tissue for transplantation

- 55 **KHUDAYKULOV FERUZBEK KHURRAMOVICH**

The concept, nature and its characteristics of a socially dangerous action in criminal law

13.00.02 – THEORY AND METHODOLOGY OF EDUCATION AND UPBRINGING (BY FIELDS)

- 66 **ZIYAMUKHAMEDOVA SHAKHNOZA TOLKUNOVNA**

Homonymy between the word forms with affixes -la + -sh and -lash

TEACHING LEGAL SCIENCES

- 77 **ABDURASULOVA KUMRINISA RAIMKULOVNA, UMIRZAKOV BEGZOD ATABOEVICH**

The emergence of the science of criminology, actual tasks and development prospects

Kelib tushgan / Получено / Received: 08.05.2024
Qabul qilingan / Принято / Accepted: 24.05.2024
Nashr etilgan / Опубликовано / Published: 24.06.2024

DOI: 10.51788/tsul.jurisprudence.4.3./PNDK3848

UDC: 811.512.133(045)(575.1)

-LA + -SH VA -LASH AFFIKSLI SO'ZSHAKLLAR ORASIDAGI OMONIMIYA

Ziyamuxamedova Shahnoza Tolkunovna,
Toshkent davlat yuridik universiteti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti
ORCID: 0000-0002-4101-7066
e-mail: shahnozaziyo@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada o'zbek tilida qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiya oid affikslarni guruhlarga ajratish, ular o'rtasidagi semantik munosabatlar, ularning semantik-struktur xususiyatlarini aniqlash, bundan omoaffikslarni tartibga solish yuzasidan fikrlar bildirilgan. Jumladan, O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini lisoniy o'rganib, omoaffikslarning qo'llanishi, xususan, mazkur ishimizda tadqiq qilinayotgan -lash hamda -la + -sh affikslarini o'rganilgan. Fe'l so'z turkumlari orasida o'zining murakkabligi, munozarali tomonlarining ko'pligi bilan ajralib turadi. Fe'llarda mana shunday muammolardan biri ko'p yillardan beri tilshunos olimlarning diqqat-e'tiborini tortib kelayotgan -lash affiksini baholash, uning ma'no xususiyatlarini o'rganishdir. Ma'lumki, nutqda bu affikslar bilan yasaluvchi fe'llarning so'zshakllariga -la + -sh affikslar tizmasi qatnashadigan fe'l so'zshakllari omonim bo'lib keladi. Maqolada -la affiksi bilan yasalgan fe'l nisbatlarining turli ko'rsatkichlari bilan qo'llanadi, -lash affiksi bilan yasalgan so'zshakllariga omonimik munosabatda bo'ladi. Fe'lдagi mana shu jumboqli, bir-biriga bog'liq masalalarni o'rganish nazarda tutilgan. O'zbek tilshunosligida fe'l turkumining yoritilishi, xususan, shu mavzuni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarining o'rganib chiqilganligi haqida ham to'xtalib o'tilgan. Ayniqsa, -lash affiksi bilan hamda -la + -sh affikslari tizmasi bilan kelgan fe'llar "O'zbek tilining izohli lug'ati"dan terib olingan, badiiy adabiyotlardan misollar to'plangan. To'plangan ma'lumotlar mavjud nazariy fikrlar asosida tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qo'shma affiks, omoaffiks, fe'l turkumi, fe'l nisbatlari, so'zshakllar, semantik munosabatlar, affikslar tizmasi, omonimiya, nisbat ko'rsatkichlari.

ОМОНИМИЯ МЕЖДУ СЛОВОФОРМАМИ С АФФИКСАМИ -LA + -SH И -LASH

Зиямухамедова Шахноза Толкуновна,
доцент кафедры «Узбекский язык и литература»
Ташкентского государственного юридического университета

Аннотация. В статье рассматривается группа сложных аффиксов узбекского языка, а также деление ряда аффиксов на группы, относящиеся к омонимичным, кроме того, описываются семантические отношения между ними, определение их семантико-структурных особенностей, расположение омоаффиксов. В частности, на примере новой Конституции Узбекистана в работе лингвистически изучено употребление омоаффиксов, в частности

аффиксов *-lash* и *-la + -sh*. Особо выделяется группа глаголов своей сложностью и множеством спорных аспектов. Одной из таких проблем является анализ аффикса *-lash* в глаголах и изучение семантических особенностей, которые уже много лет привлекают внимание лингвистов. Известно, что в речи глаголы, образованные этим аффиксом, являются омонимом глагола с аффиксом *-la + -sh*. В статье указывается, что глаголы, образованные с помощью аффикса *-la + -sh*, употребляются с разными пропорциональными показателями, а словоформы, образованные с помощью такого аффикса, как *-lash*, трактуются как омонимы. Целью данной работы является изучение этих загадочных, взаимосвязанных явлений с глаголами. Проведённое исследование глаголов в узбекском языкоизнании, в частности, основывалось на изучении научных работ, посвящённых этой теме, собраны примеры из художественной литературы, тщательно отобраны глаголы с аффиксами *-lash* и *-la + -sh* из «Толкового словаря узбекского языка». Была предпринята попытка проанализировать этот материал на основе существующих теоретических представлений.

Ключевые слова: составной аффикс, омоаффикс, глагольная часть речи, глагольные залоги, словоформы, семантические отношения, аффиксный ряд, омонимия, аффиксы залога.

HOMONYMY BETWEEN THE WORD FORMS WITH AFFIXES *-LA + -SH AND -LASH*

Ziyamukhamedova Shakhnoza Tolkunovna,
Tashkent State University of Law,
Associate Professor of the Department of
Uzbek Language and Literature

Abstract. The article expresses the grouping of articular affixes and homonymic affixes in the range of affixes of the Uzbek language, the semantic relations between them, the determination of their semantic-structural features, and the and the location of homo-affixes. In particular, we studied the new edition of the Constitution of Uzbekistan linguistically and studied the use of homo-affixes, in particular the affixes *-lash* and *-la + -sh*, which are studied in this paper. The verb stands out among the parts of speech for its complexity and many controversial issues. One of such problems in verbs is the evaluation of the affix *-lash*, which has attracted the attention of linguists for many years, and the study of its semantic features. It is known that in speech verbs formed with these affixes are homonyms of verbs with affixes *-la+sh*. In the article, verbs formed with the affix *-la* are used with different indicators of proportion, and word forms formed with the affix *-lash* are treated homonymically. The aim of this paper is to study these mysterious, interrelated issues related to the verb. Uzbek linguistics has noted the coverage of the verb family, in particular, scientific works devoted to this topic have been studied. In particular, verbs with the affix *-lash* and a number of affixes *-la+sh* have been carefully selected from the "Explanatory Dictionary of the Uzbek Language," and examples from fiction have been collected. The collected data were analyzed based on existing theoretical ideas.

Keywords: compound affix, homoaffix, verbal part of speech, verbal voices, word forms, semantic relations, affix series, homonymy, voice affixes.

Kirish

Hozirgi o'zbek adabiy tilida *-lash* qo'shma affiksi faol fe'l yasovchi bo'lib, uning yordamida ko'plab fe'llar yasaladi: *ahdlashmoq, go'zallashmoq, dag'allashmoq* kabi. Bu qo'shma affiks aslida fe'l yasovchi *-la* affiksi bilan

nisbat shaklini yasovchi affiksning o'zaro birikishidan va bir affiksga aylanishidan yuzaga kelgan: *-la+sh>-lash*. Shu bilan birga, hozirgi o'zbek adabiy tilida *-la* affiksi yordamida yasalgan fe'llarning *-sh* nisbat yasovchi affiksi bilan kelishi hollari ham uchraydi.

Masalan: *tozalashmoq* kabi va boshqalar. Demak, *-lash* qo'shma affiksi yordamida yasalgan fe'llar bilan *-sh* affiksi orqali yasalgan nisbat shakli imlosi va talaffuziga ko'ra bir xil bo'lib qoladi hamda bu tarkibiga ko'ra ikki xil so'zshakllar orasida omonimik munosabat yuzaga keladi. Bularni bir-biridan farqlab olish ayrim hollarda u qadar oson bo'lavermaydi. O'zbek tili grammatikasiga oid ishlarda bu affikslar hozirgacha faol yasovchilar qatoridan o'rinni olmagan. Hatto *-lash* qo'shma affiksi yordamida yasaluvchi *bahslashmoq*, *gapplashmoq* kabi fe'llar (mustaqil leksemalar) birgalik nisbati shakli deb qaralgan manbalar ham bor [1].

Tadqiqotda o'zbek tilshunosligida qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiya o'rganildi va quyidagi yangiliklarga erishildi:

- o'zbek tili qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiya masalasi yana bir bor chuqurroq tadqiq qilindi;
- qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyaning o'rganish asoslari ko'rsatildi;
- qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyaning o'zaro semantik munosabatlari aniqlandi: ular o'rtasidagi omonimik munosabatlar tahlil qilindi;
- o'zbek tilidagi qo'shma affiks va affikslar tizmasidagi omonimiyaning tartibga solish muammolari yuzasidan mulohazalar bildirildi va b.

Material va metodlar

Boshqa tilshunoslik sohalarida bo'lgnidek, o'zbek morfologiyasida ham qo'shma affikslardan iborat sinonimik qator tez-tez uchrab turadi.

Hozirgi o'zbek tilshunosligi o'tgan asrning 20-30-yillaridan keyin shakllana boshlagan

edi. Ta'kidlash joizki, bu sohaning shakllanish jarayoni osonlik bilan kechmadi. Mustaqillikka erishilgan sharofati bilan o'z Konsitutsiyamizning yaratilgan, yangidan yangi qonunchilik aktlari va hujjatlarning qabul qilinayotgan, sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy, moddiy-madaniy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlar o'zbek tilining morfemikasi, xususan, affiksal omonimiyaning shakllanishi, rivoji va taraqqiyoti uchun hal qiluvchi omillardan biri bo'lib qoldi.

Har qanday ilmiy tadqiqotning samarasi tanlangan tahlil metodlari va ularning nazariy asoslanishiga bog'liq, shu bois asosiy e'tibor o'zbek yuridik tili, undagi omoaffikslar bo'yicha bajarilgan tadqiqotlar, ilmiy asarlar, fikr va mulohazalar o'rganilib qiyoslandi.

Tadqiqot natijalari

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shundaki, bugungi kunda o'zbek tili morfologiyasida shakllangan yangi, zamonaviy affiksal sistemalarni o'rganish keyingi tadqiqotlarga keng yo'l ochadi.

Maqolaning xulosalari va materiallari sistem morfologiya, leksikografiya uchun muhim manba bo'la oladi.

Ma'lumki, *-lash* affiksi bilan yasalgan fe'l-larga omonim *-la + -sh* qo'shma affiksli fe'l-larda *-la* affiksining fe'l yasashi ayon. *-la + -sh* affikslari qatnashgan so'zshakllardagi *-sh* affiksi omoaffiksdir (1-jadval). Bu yerda: 1) birgalik nisbati ko'rsatkichi bo'lgan *-sh*; 2) o'zlik nisbati ko'rsatkichi bo'lgan *-sh*; 3) harakat jarayonining intensivligini (yoki aksincha) ko'rsatuvchi *-sh*; 4) ishning asosiy bajaru-chisiga yordamlashish ma'nosidagi qo'llanuvchi *-sh* affikslari ayni bir shaklda kelib, turli vazifalarni bajarmoqdalar.

1-jadval

O'zbek tilshunosligida affiksal omonimiya va uning yuridik matnlarda ifodalanishi

Nº	Fe'llar	Birgalik nisbati ma'nosi	Belgining intensivligi yoki aksincha	O'zlik nisbati ma'nosi	Yordamla-shish ma'nosi
1	Araz+la+sh+moq	+			
2	Bosh+la+sh+moq	+			
3	Bog'+la+sh+moq				+
4	Bo'lak+la+sh+moq				+
5	Darak+la+sh+moq	+			
6	Dov+la+sh+moq	+			
7	Yomon+la+sh+moq		+		
8	Jadal+la+sh+moq		+		
9	Joy+la+sh+moq			+	
10	Juft+la+sh+moq	+			
11	Zich+la+sh+moq		+		
12	Im+la+sh+moq	+			
13	Iflos+la+sh+moq			+	
14	Ixcham+la+sh+moq			+	
15	Yirik+la+sh+moq			+	
16	Mayda+la+sh+moq			+	
17	Musht+la+sh+moq	+			
18	Olis+la+sh+moq		+		
19	Pichir+la+sh+moq	+			
20	Pichoq+la+sh+moq	+			
21	Salqin+la+sh+moq		+		
22	Sekin+la+sh+moq		+		
23	Siz+la+sh+moq	+			
24	Silliq+la+sh+moq		+		
25	Tayyor+la+sh+moq				+
26	Tamom+la+sh+moq				+
27	Tarang+la+sh+moq		+		
28	Taqsim+la+sh+moq				+
29	Tez+la+sh+moq		+		
30	Teng+la+sh+moq			+	
31	Tepki+la+sh+moq	+			
32	Tetik+la+sh+moq		+		
33	Tig'iz+la+sh+moq		+		
34	Toza+la+sh+moq				+
35	Fikr+la+sh+moq	+			
36	Xabar+la+sh+moq	+			
37	Xo'sh+la+sh+moq	+			
38	Chet+la+sh+moq			+	
39	O'y+la+sh+moq	+			
40	O'tkir+la+sh+moq		+		
41	Qator+la+sh+moq	+			
42	Qattiq+la+sh+moq		+		
43	Quchoq+la+sh+moq	+			
44	Qo'lтиq+la+sh+moq	+			
45	Hisob+la+sh+moq	+			

Misollar:

1. Ular bir-birlari bilan arazlashib, bir haftadan beri gaplashishmaydi (N. Qobul) (bu yerda *-sh* – birqalik nisbati ko'rsatkichi).
2. Shiypon supasidan sakrab tushgan Salimni ko'rib Nabining qadami tezlashdi (H. Nazir) (*-sh* – harakatning intensivligini ko'rsatyapti).
3. Bu kichkina ovulda bitta boshlang'ich mактаб joylashgan edi (S. Siyoyev) (*-sh* o'zlik nisbati ko'rsatkichi).
4. Unga "ha-ha" lashmasak, hammamizga keyin qiyin bo'ladi (Y. Sulaymon) (*-sh* ko'maklashish ma'nosida).

Albatta, *-la+sh* qo'shma affiksli so'zshaklning ma'nolari bevosita nutqda, shu ma'nolarning ifodalanishiga xizmat qiluvchi so'z va qo'shimchalar yordamida yuzaga chiqadi. Bu shakldosh til birligi bajaradigan vazifa gapning tuzilishi bilan ham bog'liq. Buni yuqoridagi misollar ham ko'rsatib turibdi.

2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan O'zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan O'zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasini lisoniy o'rganib, omoaffikslarning qo'llanishi, xususan, mazkur ishimizda tadqiq qilinayotgan *-lash* hamda *-la+sh* affikslarini o'rgandik. Izlanishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, Konstitutsiyamiz matnida ular nihoyatda kam uchradi.

Konstitutsiyamizda qo'llangan *-lash* va *-la+sh* affiksli fe'lllar ro'yxati:

- 1) *ko'mak + lash + moq*;
- 2) *so'z + la + sh + moq*.

1. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlariga o'z faoliyatini amalga oshirishda ko'maklashish (95/11-modda).

2. Sud ishlari olib borilayotgan tilni bilmaydigan sudda qatnashuvchi shaxslarning tarjimon orqali ish materiallari bilan to'la tanishish va sud ishlarida ishtirok etish huquqi hamda sudda ona tilida so'zlash huquqi ta'minlanadi (139-modda).

-lash va *-la + -sh* affiksli fe'lllar, yuqoridagi jadvalda ko'rib turganimizdek, juda kam qatnashgan.

Tadqiqot natijalari tahlili

Maqolamizda *-la + -sh* qo'shma affiksli fe'lllardan 45 tasini tahlil qildik. Shulardan birqalik nisbati ma'nosi 19 ta fe'lida, harakatning intensivligini ko'rsatish 17 ta fe'lida, o'zlik nisbati ma'nosi 3 ta fe'lida va yordamlashish ma'nosi 6 ta fe'lida hisobga olindi. Bu fe'llarning hammasi nutqda ko'plik ma'nosini ifodalab qo'llanishi mumkin.

-lash affiksi ham tarixan *-la* va *-sh* affikslerining birikuvidan hosil bo'lib, u hozirgi kunda ot, sifat va ravishlardan fe'l yasaydi. Sonlardan faqat "bir" so'ziga qo'shilib, "birlash" fe'lini yasaydi. *-lash* affiksining tarkibidagi *-sh* affiksi o'zlik va birqalik nisbatlaridan biri ma'nosini ifodalaydi: *ko'maklashmoq*, *asabiylashmoq*, *suhbatlashmoq*, *va'dalashmoq*. Lekin *-lash* affiksi bilan yasalgan fe'llarning ma'nosi bu fe'lning yasalish asosiga, uning qaysi so'z turkumiga mansubligi, qanday ma'noning ifodalanishiga bog'liq. *-lash* affiksi bilan yasalgan fe'llarni ma'nosiga ko'ra ba'zan *-lan* affiksi bilan yasaluvchi fe'llardan farqlash qiyin: *yiriklashmoq*, *osonlashmoq*, *tezlashmoq*, *yaqinlashmoq*, *og'irlashmoq* kabi.

Shuning ta'sirida ba'zi fe'llarda *-lash* va *-lan* affikslarining birini ikkinchisi bilan almashtirish mumkin: *asabiylanmoq* – *asabiylashmoq* kabi. Masalan:

Holbuki, hozir kelganlar elliktaga ham yetmaydi, shuning uchun ham Jo'ra ortiq asabiylangan (H.Sh.). Usta endi "g'isht!" deganda asabiylashmas, devor tez ko'tarilar edi (Sh.S.).

Lekin *-lan* va *-lash* affikslari vositasida fe'l yasalishi so'zlar doirasida, umuman olganda, chegaralangan: aynan bir xususiyatlari fe'llarning ba'zilari *-lan* affiksi yordamida yasalsa, ba'zilari *-lash* affiksi vositasida yasaladi. Masalan, *havaslanmoq*, *to'lqinlanmoq*, *ovqatlanmoq*, *shakllanmoq*, *zavqlanmoq*, *foydalannoq* fe'llarining *-lash* affiksi bilan yasa-

lishi yo'q. Bu esa tilning taraqqiyotini belgilovchi, tilni harakatlantiruvchi omil, avvalo, zarur tushuncha, ma'nolarni ifodalovchi yangi so'z va so'z birikmalariga bo'lgan ehtiyoj, zarurat ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi. Til taraqqiyoti, uning nutqda sayqallanishi murakkab va nozik jarayon bo'lib, unda tanlov nihoyatda kuchli, aloqa-aratashuv vositasi sifatida, murakkab his-tuyg'ularni ifodalash vositasi sifatida til o'ziga kerakli, zarur so'zlarni davr, sharoit talabiga va ehtiyojiga ko'ra yaratib oladi. *-lan*, *-lash* so'z yasovchi affikslarining yuzaga kelishi va faol fe'l yasovchiga aylanishi ham mana shu zarurat tufaylidir.

-lan affiksi bilan yasalgan fe'llarda o'zlik darajaga, *-lash* affiksi yordamida yasaluvchi fe'llarda o'zlik va birgalik darajaga xos xususiyatning saqlanishidan qat'i nazar, bu affikslar vositasida yasaluvchi fe'llar bosh nisbat shakli hisoblanadi. Chunki *rivojlanmoq*, *og'irlashmoq* kabi fe'llarda nisbat shaklini yasovchi affiks qo'llanmagan.

Fe'lning hech qanday daraja ko'rsatkichi-ga ega bo'limgan formasi esa bosh daraja deyiladi: shodlanmoq – shod bo'lmoq, suhbatlashmoq – suhbat qurmoq. Shod bo'lmoq, suhbat qurmoq qo'shma fe'llarida hech qanday daraja ko'rsatkichi yo'q va ular bosh daraja formasidagi fe'ldir. Daraja formasi va ma'nosi jihatidan shodlanmoq va suhbatlashmoq fe'llari shod bo'lmoq, suhbat qurmoq fe'llaridan farqlanmaydi va ular ham fe'lning bosh daraja formasidadir [2].

-lash affiksi bilan yasalgan fe'llar *-lan* bilan yasalgan fe'llarga nisbatan kam. *-lan* affiksi asosan otlardan va boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasasa, *-lash* affiksi asosan sifatlardan va nisbatan kamroq boshqa so'z turkumlaridan fe'l yasaydi. Bular *-lan* va *-lash* affiksli fe'llar har holda boshqa-boshqa bo'lib, bir-biridan ko'p hollarda ajralib turishini ko'rsatadi.

Maqolamizda biz "Izohli lug'at"dagi 235 ta *-lash* affiksli fe'llarni olib, ularning ma'nolarni quyidagicha o'rganib chiqdik (2-jadval):

2-jadval

O'zbek tilshunosligida affiksal omonimiya va uning yuridik matnlarda ifodalanishi

Nº	Fe'llar	Birgalik nisbati ma'nosi	Belgining intensivligi yoki aksincha	O'zlik nisbati ma'nosi
1	Abadiy+lash+moq		+	
2	Avtomat+lash+moq			+
3	Apoq-chapoq+lash+moq	+		
4	Asabiy+lash+moq			+
5	Achchiq+lashmoq	+		
6	Aql+lash+moq	+		
7	Ahd+lash+moq	+		
8	Ahil+lash+moq	+		
9	Bayram+lash+moq	+		
10	Baland+lash+moq		+	
11	Bankrot+lash+moq			+
12	Baravar+lash+moq	+		
13	Bardam+lash+moq			+
14	Basmabas+lash+moq	+		
15	Batrak+lash+moq		+	
16	Battar+lash+moq		+	
17	Bachkana+lash+moq		+	
18	Bahs+lash+moq	+		
19	Bemaza+lash+moq		+	
20	Bel+lash+moq	+		
21	Begona+lash+moq		+	

22	Biyron+lash+moq		+ +	
23	Birga+lash+moq	+		
24	Bir+lash+moq	+		
25	Birodar+lash+moq	+		
26	Botir+lash+moq			+
27	Vazmin+lash+moq			+
28	Va'da+lash+moq	+		
29	Vahshiy+lash+moq		+	
30	Vido+lash+moq	+		
31	Gavjum+lash+moq		+	
32	Gaz+lash+moq		+	
33	Gala+lash+moq	+		
34	Gap+lash+moq	+		
35	Guppak+lash+moq	+		
36	Gurung+lash+moq	+		
37	Go'zal+lash+moq			+
38	Dadil+lash+moq			+
39	Dangasa+lash+moq		+	
40	Dard+lash+moq	+		
41	Daxl+lash+moq	+		
42	Dag'al+lash+moq		+	
43	Demokrat+lash+moq		+	
44	Diydor+lash+moq	+		
45	Durst+lash+moq		+	
46	Dushman+lash+moq	+		
47	Do'st+lash+moq	+		
48	Yengil+lash+moq		+	
49	Yovvoyi+lash+moq		+	
50	Yovuz+lash+moq		+	
51	Yordam+lash+moq	+		+
52	Yorug'+lash+moq		+	
53	Yot+lash+moq		+	
54	Yoqa+lash+moq	+		
55	Janjal+lash+moq	+		
56	Jiddiy+lash+moq			+
57	Jo'ra+lash+moq	+		
58	Zaif+lash+moq		+	
59	Zamonaviy+lash+moq		+	
60	Ijtimoiy+lash+moq		+	
61	Ikkov+lash+moq	+		
62	Ion+lash+moq		+	
63	Imo+lash+moq	+		
64	Ingichka+lash+moq		+	
65	Iniq+lash+moq			+
66	Inoq+lash+moq	+		
67	Ittifoq+lash+moq	+		
68	Ixtisos+lashmoq		+	
69	Iqlim+lash+moq		+	
70	Yiroq+lash+moq		+	
71	Yo'g'on+lash+moq		+	
72	Kambag'al+lash+moq		+	
73	Katta+lash+moq		+	
74	Kesak+lash+moq		+	
75	Keskin+lash+moq		+	
76	Kichik+lash+moq		+	

77	Konkret+lash+moq		+ +	
78	Konsentratsiya+lash+moq		+ +	
79	Kooperativ+lash+moq	+		
80	Kun+lash+moq	+		
81	Ko'kalamzor+lash+moq		+ +	
82	Ko'mak+lash+moq	+		
83	Ko'p+lash+moq	+		
84	Ko'r kam+lash+moq			+
85	Madaniy+lash+moq		+ +	
86	Mayin+lash+moq		+ +	
87	Maktub+lash+moq	+		
88	Markaz+lash+moq		+ +	
89	Maslahat+lash+moq	+		
90	Maxsus+lash+moq		+ +	
91	Mashina+lash+moq		+ +	
92	Mexanizatsiya+lash+moq		+ +	
93	Milliy+lash+moq		+ +	
94	Mojaro+lash+moq	+		
95	Motor+lash+moq		+ +	
96	Muvofiq+lash+moq		+ +	
97	Mujassam+lash+moq		+ +	
98	Mukammal+lash+moq		+ +	
99	Muloyim+lash+moq		+ +	+
100	Murakkab+lash+moq		+ +	
101	Musaffo+lash+moq		+ +	
102	Musobaqa+lash+moq	+		
103	Mushkul+lash+moq		+ +	
104	Mushtarak+lash+moq	+	+ +	
105	Mo'rt+lash+moq		+ +	
106	Navbat+lash+moq	+		
107	Nafis+lash+moq			+
108	Nizo+lash+moq	+		
109	Nozik+lash+moq			+
110	Obod+lash+moq		+ +	
111	Oydin+lash+moq		+ +	
112	Omma+lash+moq		+ +	
113	Ommaviy+lash+moq		+ +	
114	Omon+lash+moq		+ +	
115	Oson+lash+moq		+ +	
116	Og'ayni+lash+moq	+	+ +	
117	Og'ir+lash+moq		+ +	
118	Passiv+lash+moq		+ +	
119	Pastkash+lash+moq			+
120	Patak+lash+moq			+
121	Pachaki+lash+moq	+		
122	Pashsha+lash+moq		+ +	
123	Piyoda+lash+moq	+		
124	Ravon+lash+moq		+ +	
125	Ravshan+lash+moq		+ +	
126	Radio+lash+moq	+		
127	Razil+lash+moq			+
128	Rasmiy+lash+moq		+ +	
129	Ratsional+lash+moq		+ +	
130	Raqobat+lash+moq	+		

131	Real+lash+moq		+ +	
132	Savdo+lash+moq	+		
133	Sayoz+lash+moq		+	
134	Salom+lash+moq	+		
135	Salom-alik+lash+moq	+		
136	Samimiy+lash+moq			+
137	Syrak+lash+moq		+	
138	Siyqa+lash+moq		+	
139	Silki+lash+moq		+	
140	Sir+lash+moq	+		
141	Sodda+lash+moq			+
142	Soxta+lash+moq			+
143	Sog'lom+lash+moq			+
144	Stabil+lash+moq		+	
145	Sud+lash+moq	+		
146	Surbet+lash+moq			+
147	Sust+lash+moq		+	
148	Suyuq+lash+moq		+	
149	Suhbat+lash+moq	+		
150	So'lg'in+lash+moq		+	
151	Tajang+lash+moq			+
152	Takomil+lash+moq		+	
153	Tanbal+lash+moq			+
154	Taraqqiy+lash+moq		+	
155	Tartibsiz+lash+moq		+	
156	Telefon+lash+moq	+		
157	Teran+lash+moq		+	
158	Teskari+lash+moq	+		
159	Tiyarak+lash+moq		+	
160	Til+lash+moq	+		
161	Tiniq+lash+moq		+	
162	Tig'iz+lash+moq		+	
163	Totuv+lash+moq	+		
164	Tuban+lash+moq		+	
165	Tuman+lash+moq		+	
166	Tund+lash+moq	+		
167	Turg'un+lash+moq		+	
168	Uzun+lash+moq		+	
169	Uzoq+lash+moq		+	
170	Uyg'un+lash+moq	+		
171	Ulkan+lash+moq		+	
172	Ulfat+lash+moq	+		
173	Faqir+lash+moq		+	
174	Xayr+lash+moq	+		
175	Xarob+lash+moq		+	
176	Xasis+lash+moq		+	
177	Xafa+lash+moq	+		+
178	Xipcha+lash+moq		+	
179	Xira+lash+moq		+	
180	Xonaki+lash+moq			+
181	Xudbin+lash+moq			+
182	Xurjun+lash+moq	+		
183	Chatoq+lash+moq		+	
184	Chaqqon+lash+moq			+
185	Chechan+lash+moq			+

186	Chigal+lash+moq		+		
187	Choy+lash+moq	+			
188	Chuva+lash+moq		+		
189	Chuchmal+lash+moq		+		
190	Chuqur+lash+moq		+		
191	Shablon+lash+moq		+		
192	Shart+lash+moq	+			
193	Shahar+lash+moq		+		
194	Sherik+lash+moq	+			
195	Ezma+lash+moq	+			
196	Eson+lash+moq	+			
197	Yuz+lash+moq	+			
198	Yupqa+lash+moq		+		
199	Yalqov+lash+moq			+	
200	Yaqin+lash+moq		+		+
201	O'z+lash+moq		+		
202	O'rtoq+lash+moq	+			
203	O'sal+lash+moq			+	
204	O'tmas+lash+moq			+	+
205	O'troq+lash+moq	+			
206	Qabih+lash+moq				
207	Qadrdon+lash+moq	+			
208	Qalin+lash+moq		+		
209	Qasd+lash+moq	+			
210	Qat'iy+lash+moq				
211	Qashshoq+lash+moq		+		
212	Qahqah(a)+lash+moq	+			+
213	Qizg'in+lash+moq		+		
214	Qiyin+lash+moq		+		
215	Qiychuv+lash+moq	+			
216	Qilich+lash+moq	+			
217	Qimmat+lash+moq		+		
218	Qonun+lash+moq		+		
219	Qorong'i+lash+moq		+		
220	Qulay+lash+moq		+		
221	Quloq+lash+moq	+			
222	Quyuq+lash+moq		+		
223	Qo'pol+lash+moq				
224	G'arib+lash+moq		+		
225	G'ijil+lash+moq	+			+
226	G'ilay+lash+moq			+	
227	G'ovur+lash+moq	+			
228	Havoyi+lash+moq				
229	Hayosiz+lash+moq		+		
230	Hasrat+lash+moq	+			
231	Hazil+lash+moq	+			
232	Hayvon+lash+moq		+		
233	Haykal+lash+moq		+		
234	Hamdam+lash+moq	+			
235	Hamdard+lash+moq	+			

Xulosalar

Yuqorida qildan kelib chiqqan holda quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Maqlolada *-la* + *-sh* affikslar tizması va *-lash* murakkab affiksi qatnashgan fe'llarga 188 ta misol to'plandi. Shundan 45 tasi *-la* +

-sh affikslar tizmasi qatnashgan fe'l ekanligi va 133 tasi -lash affiksi qatnashgan fe'l ekanligi ma'lum bo'ldi. Demak, fe'l yasovchi -lash murakkab affiksi hozirgi kunga kelib faol fe'l yasovchiga aylangan, chunki yuqoridagi natijalar -lash affiksining -la + -sh affikslar tizmasidan to'rt baravar ortiqligini ko'rsatib turibdi.

2. Bu affikslarning nisbatlarga munosabati bo'yicha o'rganganimizda, -la+-sh affikslar tizmasi qatnashgan fe'llarning 19 ta birgalik nisbati va 3 ta o'zlik nisbati ma'nosida qo'llangani, -lash affiksi qatnashgan fe'llar esa 36 ta birgalik nisbati va 18 ta o'zlik nisbati ma'nolarida qo'llangani ma'lum bo'ldi.

REFERENCES

1. Mirzayev M., Usmonov S., Rasulov I. O'zbek tili [Uzbek language]. Tashkent, 1978, pp. 120–121.
2. Hojiyev A. So'z yasalishi. Hozirgi o'zbek adabiy tili [Word formation. Modern Uzbek literary language]. Tashkent, 1980, p. 199.
3. Tursunov U., Muxtorova A., Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek tili [Current Uzbek language]. Tashkent, Uzbekistan Publ., 1992.
4. Aylamova M.T. O'zbek tilidagi omomorfemalar [Homomorphemes in the Uzbek language]. Proceedings of scientific works of Tashkent State University, 1964, no. 203.
5. O'zbek tili grammatikasi [Grammar of the Uzbek language]. Tashkent, Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan Publ., 1975.
6. G'ulomov A. Fe'l [Verb]. Tashkent, 1959.
7. Hojiyev A. Fe'l [Verb]. Tashkent, FAN Publ., 1973.
8. G'ulomov A., Tixonov A., Qo'ng'uров R. O'zbek tili morfem lug'ati [Uzbek language morpheme dictionary]. Tashkent, Ukituvchi Publ., 1977.
9. Hojiyev A. So'z yasalishi. Hozirgi o'zbek adabiy tili [Word Formation. Modern Uzbek literary language]. Tashkent, Ukituvchi Publ., 1980.
10. Jo'rabyeva M.A. O'zbek tilida affiksal omonimiya [Affixal homonymy in the Uzbek language]. *Journal of Uzbek Language and Literature*, 1970, vol. 3.
11. Jo'rabyeva M.A. Affiksal omonimlarni belgilashning formal va semantik prinsiplariga doir [On the formal and semantic principles of determining affixal homonyms]. Tashkent, *Issues of Uzbek Linguistics*, 1975, iss. 475.
12. Jo'rabyeva M.A. O'zbek tilidagi affiksal omonimik qatorlarni yoppasiga o'rganish natijalari. [Results of comprehensive study of affixal homonymic strings in the Uzbek language]. Tashkent, *Issues of Uzbek Linguistics*, 1975, iss. 486.
13. Ziyamukhamedova Sh.T. Uzbeksiye terminy informatsionno-kommunikatsionnoy sfery [Uzbek terms of the information and communication sphere]. *Cultural Studies, Art Studies and Philology: Modern Views and Scientific Research*. 2019, pp. 95–102.
14. Ziyamuhamedova Sh. Bobur g'azallari leksikasi bo'yicha konkordans-lug'at (116 g'azal namunalari bilan) [A concordance dictionary on the lexicon of Babur's ghazals (with examples of 116 ghazals)]. *Societies and Innovations*, 2022, no. 3, pp. 24–30.
15. Ziyamuhamedova Sh. G'afur G'ulomning "Mening o'g'ri bolam" qissasi leksikasi va qissa asosida tuzilgan kichik konkordans-lug'at haqidagi fikrlarim. [My comments on the lexicon of Gafur Ghulam's story "My Thief Boy" and a small concordance-dictionary based on the story]. *Societies and Innovations*, 2020, no. 1. pp. 211–215.